

ICT4Girls sport dasturlash oromgohi uchun onlayn saralash bosqichining o'tkazilish tartibi, qoidalar va tavsiyalar

Kutilganidan ko'ra ko'proq nomzod ro'yxatdan o'tayotganligi sababli, ICT4Girls oromgohi uchun oflayn saralashdan avval onlayn saralash bosqichi tashkil etiladi. Onlayn saralashda Siz o'zingizga qulay joyda, o'zingizga ishlash qulay bo'lgan kompyuter orqali ishtirok etishingiz mumkin. Bunda saralash bosqichining belgilangan tartib va qoidalariga amal qilinishi shart.

Onlayn saralashda qoidalarni buzmaganda yuqori ball to'plagan birinchi 200 nafar ishtirokchi oflayn saralash bosqichiga tavsiya etiladi.

Onlayn saralash:

- 17-iyul kuni soat 15:00da boshlanadi;
- 5 ta masala uchun jami 2 soat vaqt beriladi (17:00da yakunlanadi);
- “Yandex Contest” platformasida bo'ladi;
- Masalalar o'zbek va ingliz tillarida beriladi;
- Yechimlarni C++, Python dasturlash tillarida yo'llash mumkin;
- Login, parol va kontest havolasi Siz oromgoh uchun ariza yuborishda foydalangan elektron pochta manziliga yuboriladi;
- Ekran yozuvi: nomzodlar kontest davomida ekranlarini to'liq yozib olishlari va kontest tugagach YouTube platformasiga yuklab havolani tashkilotchilarga tashlab berishlari lozim. Bunda 15:00-17:00 oralig'idagi har bir soniya to'liq yozib olinishi zarur;
- Taqiqlangan harakatlarga yo'l qo'ygan ishtirokchilar kontestdan chetlashtiriladi va bunday holatlar yuzasidan e'lon qilingan natijalar yakuniy hisoblanib, qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ruxsat berilgan saytlar va dasturlar:

- <https://cppreference.com/>
- <https://docs.python.org/3/>
- <https://translate.google.com/>
- “Yandex Contest” platformasida ishlash uchun berilgan havola
- Kod yozish uchun dasturlar (IDE va editor)

- Ekran yozib olish uchun dastur

Taqiqlangan harakatlar:

- oldindan yozilgan kodlarni ishlatish;
- ruxsat berilmagan saytlarga va dasturlarga kirish;
- boshqa shaxslar ko‘magidan foydalanish;
- dastur matnidagi assembler ko‘rsatmalaridan foydalanish;
- kataloglar bilan ishlash;
- uzilish vektorlarini o‘qish va yozish;
- musobaqa o‘tkazish tizimining faoliyatini buzuvchi har qanday boshqa harakatlar;
- sun‘iy intellekt vositalari, jumladan, kod generatorlari va avtomatlashtirilgan masala yechuvchilardan foydalanish.

Kontestdan chetlashtiriladi, agar:

- ekran yozib olinmagan bo‘lsa va tashkilotchilarga tashlab berilmasa;
- ekran yozuvida uzilishlar bo‘lsa (1 soniya bo‘lsa ham);
- yuqorida keltirilgan taqiqlangan harakatlar kuzatilsa.

MUHIM:

- Onlayn saralashda to‘liq qatnashmaganlar uchun alohida saralash tashkil etilmaydi.
- Taqiqlangan harakatlar bajarilgani aniqlangan holatlarda ishtirokchilar chetlashtiriladi va natijalar qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Tavsiya etiladi:

- Kontest davomida elektr uzilishining oldini olish uchun barqaror elektr manbaiga ega joyda kontestni boshlash;
- Elektr uzilishi holatida kontestni davom ettirish uchun zaryadi to‘liq va Internetga ulanish imkoniyati mavjud noutbuk zaxirada tayyor turishi zarur.
- Ekran yozuvchisi uzluksiz ishlashi uchun kompyuter/noutbuk xotirasini kontest boshlanishidan oldin bo‘shatib qo‘yish (o‘rnatish uchun tavsiya etiladigan ekran yozuvchisi: [Icecream Screen Recorder](#));
- Kontest boshlanishidan avval ekran yozuvchisi sozligi, ya’ni uzilishlarsiz ishlayotganini tekshirib olish.

Ekran yozuvini yuborish:

Kontest yakunlangandan so‘ng YouTube platformasiga “Unlisted” qilib yuklangan video havolasini **3 soat ichida** ushbu [google formaga](#) kiritib jo‘natishingiz kerak.

YouTube’da videoni “Unlisted” qilib yuklash bo‘yicha ko‘rsatma:

1. youtube.com saytiga kirib, o‘z hisobingizga kiring.
2. Ekranning yuqori o‘ng burchagidagi qo‘shish belgisi (+) ni bosing va “Video yuklash” (“Upload video”) ni tanlang.
3. Yuklamoqchi bo‘lgan videoni tanlab yuklashni boshlang.
4. Video sarlavhasi uchun o‘zingizning ismingizni kiriting.
5. “Ko‘rinish darajasi” (Visibility) qismiga o‘ting va “Unlisted” variantini tanlang. Bu rejimda video YouTube qidiruv tizimida chiqmaydi va kanalingizda ko‘rinmaydi.
6. “Saqlash” yoki “Yuklash” tugmasini bosing. Video yuklangandan so‘ng video havolasidan nusxa olib [google formaga](#) kiriting.